

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2024
1-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING NUTQ AKTLARINI
O'RGATISHDAGI AHAMIYATI

Sadikov Erkin Tursunovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi nutq aktlarini o'qitishda turli shakldagi mashg'ulotlarning xususiyatlari tavsiflanadi va sharhlanadi. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiyaning nutq aktlarini o'rgatishdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiyalar, nutq aktlari, interaktiv mashg'ulotlar, interfaol metodlar, aktivlik moduli.


Kommunikativ kompetensiyada ijtimoiylik masalasi yetakchi o'rin tutadi. Tildan muvaffaqiyatli foydalanish uchun, albatta, lingvistik kompetensiyaning talaffuz me'yorlari, grammatika va lug'at kabi ko'nikmalarni imkon qadar teranroq o'zlashtirish talab etiladi. Ammo bundan tashqari, ijtimoiy-lingvistik kompetensiya, suhbatni qanday boshlash va yakunlash, qanday va qachon xushmuomala bo'lish, odamlarga qay tariqa murojaat qilish kabi ijtimoiy-normativ bilimlar ham ahamiyatli hisoblanadi. Aynan muloqotda komplimentlarni rad etish tamoyillarini o'rgatishda o'qituvchilar jarayon metod (faoliyat usullarining tanishish, mashq qilish, qo'llash)dan foydalanishlari darsning ko'zlangan maqsadiga erishishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, muloqot jarayonida o'zini qanday tutish, suhbatni samarali rivojlantirish, tushunmovchiliklardan qochish, ziddiyatlarning oldini olish, ma'lum bir holatlarda kompensatsiya qilish qobiliyatlari ham suhbatdoshlar uchun dolzarb hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiyaning qonun-qoidalari hamda atamasi nutq aktlari nazariyasining maydonga chiqib kelishidan deyarli qirq yil o'tib amerikalik tilshunos Dell Slayms tomonidan ixchamroq talqinda ilm ommasiga taqdim etildi. Slayms o'zining nazariyasida tildan maqsadli va to'g'ri foydalanishning muhimligi xususida so'z yuritadi. Bugungi kunda tilshunoslarning antropologik, funksional tilshunoslik sohalarida tadqiqot olib borayotganlari ham kommunikativ kompetensiyaning keng qamrovli ekanligini e'tirof etmoqdalar. Komplimentlar va inkorni ifodalovchi nutq aktlarini o'qitishda tashkiliy shakllardan individual, guruh-jamoaviy va individual-jamoaviy mashg'ulotlarning ahamiyati katta. Odatda, individual ta'limning komponenti sifatida nutq aktlarini o'qitishda o'qituvchilar mustaqil ta'limdan foydalanishlari mumkin. Masalan, talabalarning shaxsiy kuzatishlari, ko'nikmalari asosida bajariladigan mustaqil topshiriqlarga tayaniladi. Talabalar dam olish kunlarida yoki darsdan bo'sh bo'lgan paytlarida Buxoro shahridagi turistlar gavjum joylarga borishadi, ular bilan chet tilida muloqot qilishadi; suhbat taassurotlari, izlanishlari natijalarini kundaliklariga qayd etib boradilar. Guruh-jamoaviy mashg'ulotlarda esa talabalar o'qituvchi nazoratida va rahbarligida nutq aktlari haqidagi bilimlarini oshira oladilar (ma'ruza, seminar, amaliy darslarda). Ijodiy va ilmiy haftaliklarda ishtirok etish, o'zlarining yaratuvchanlik

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral


qobiliyatlarini sinab ko'rish orqali talabalar individual-jamoaviy mashg'ulotlarning samarasini his qilishlari mumkin. Itifot va inkorni ifodalovchi nutq aktlarining madaniy xususiyatlari haqida ma'lumot berayotganda, ularning qo'llanilishi yuzasidan nazariy bilimlarni yetkazishda o'qituvchi yetakchilik qilishi va faol bo'lishi kerak.

1-diagramma




O'qitishning faol metodida talabalar aktivlik moduliga o'tadilar, ular komplimentlar va inkorni ifodalovchi nutq aktlari bo'yicha mavjud senariylar, nutq vaziyatlarida egallagan bilimlarini amalda ko'rsatishga harakat qiladilar; o'qituvchi faqat nazoratchi vazifasini o'taydi.

2-diagramma



Interfaol metodlarni qo'llash jarayonida barcha "subyekt"lar teng huquqli bo'ladilar va bir xil faollikni namoyon qilishadi.

3-diagramma



Didaktik o'yinli darslarning syujetli rolli o'yinlar, savol-javoblar, munozara va muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan turlari nutq aktlarini o'qitishda qo'l keladigan metodlar bo'lib, ular pedagog oldiga:

- darslar davomida didaktik tamoyillarga amal qilish hamda vaqtni samarali nazorat qilish;
- ijtimoiy va kundalik hayotdagi muammolarga mazkur tipdagi o'yinlar hamda mashqlar orqali yechim topish;
- jarayonda qo'llaniladigan usullarni komil insonni kamol toptirish uchun muhim bo'lgan odob-axloq normalariga muvofiq tanlash;
- yuqoridagi usullardan foydalanish davomida ta'limiy va tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni nazarda tutish, mashg'ulotlar orasida mantiqiy izchillikni ta'minlash kabi bir qator talablarni qo'yadi.

ADABIYOTLAR:

1. Rasulov, Z. (2023). PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYADA MANIPULYATSIYA TUSHUNCHASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 39(39).
2. Rasulov, Z. (2022). Об объекте исследования когнитивной семантики. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8(8).
3. Rasulov, Z. I. (2023). THE NOTION OF NON-EQUIVALENT WORDS AND REALIAS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(6), 35-40.
4. Sadikov, E. (2023). Teaching Pragmatic Speech Acts Of Compliments And Refusals In Accordance With Contemporary Methods. Interpretation and researches, 1(15).
5. Tursunovich, S. E. (2021). Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English. European Scholar Journal, 2(12), 9-12.
6. Sadikov, E. (2023). Teaching Pragmatic Speech Acts Of Compliments And Refusals In Accordance With Contemporary Methods. Interpretation and researches, 1(15).

7. Sadikov, E. (2024). Innovative Ways Of Teaching Speech Acts Through Auditory Skills. *Science and innovation in the education system*, 3(2), 5-8.
8. Tursunovich, S. E. (2022). Novel Teaching Technologies of Pragmatic Speech Acts.
9. Sadikov, E. (2023). Actual Issues of Teaching Pragmatic Competences to English Language Learners in Uzbekistan. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu.uz), 27(27).
10. Tursunovich, S. E. (2021). Speech acts of refusals: Challenging the challenges. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 2063-2067.
11. Садиков, Э. Т. (2023). ПРАГМАТИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗНАЧЕНИЯ. *Scientific progress*, 4(4), 157-160.
12. Tursunovich, S. E. (2021). Teaching speech acts of compliments: What is what?
13. Tursunovich, S. E. Teaching pragmatic competence in EFL context: the case of Uzbek EFL teachers. *Язык И Культура*, 55.
14. Sadikov, E. T. (2021). Establishing Connectivity Between Grammar Skill Approach And Speech Acts. *Is Pragmatics In Or Out. Вестник Магистратуры*, 52.
15. Tursunovich, S. E. (2021). THE ROLE OF PRAGMATICS IN OVERCOMING CHALLENGES OF ACADEMIC WRITING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 247-249.
16. Ikromovich, A. I. (2025). Utilizing Aphorisms in Uzbek and English to Express Linguistic Images of The World. *International Journal of Language Learning and Applied Linguistics*, 4(1), 79–83. <https://doi.org/10.51699/ijllal.v4i1.354>
17. Saidov, K. S. (2022). LANGUAGE EVOLUTION AND LANGUAGE ECONOMY. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"*, 1(4), 108–115. Retrieved from <https://academicsresearch.ru/index.php/iscitspe/article/view/1019>
18. Azamatjon, A. ., & Rasulov, Z. I. . (2023). The Stydying of the Notion of Language Economy in Linguistics . *Miasto Przyszłości*, 32, 161–164. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1120>